

EKALOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINING DOLZARB MUAMMOLARI

Tursinmetov Ibodulla Rozibaevich

ibodullatursunmetov@gmail.com

Qosimova Layloxon Zafarjon Qizi

layloxonqosimova08@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqola atrof muhit muhofazasi jahon miqyosida keskin ahamiyatga ega, chunki u inson salomatligi, tabiat va iqtisodiyotga bevosita ta'sir qiladi. Maqolada havoning ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, yerning degradatsiyasi va biologik xilma xillikning yo'qolishi kabi muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Global isish, barqaror rivojlanish, karbon izi, biologik xilma-xillik, ifloslanish, ekotizm, deforestatsiyalar, yashil texnologiyalar, parij bitmi, barqaror energiya, Orol dengizi.

Аннотация: Данная статья посвящена охране окружающей среды, которая имеет важное значение на глобальном уровне, так как напрямую влияет на здоровье человека, природу и экономику. В статье анализируются такие проблемы, как загрязнение воздуха, сокращение водных ресурсов, деградация земель и утрата биологического разнообразия.

Ключевые слова: Глобальное потепление, устойчивое развитие, углеродный след, биологическое разнообразие, загрязнение, экосистема, вырубка лесов, зеленые технологии, Парижское соглашение, возобновляемая энергия, Аральское море.

Transport majmuasi atrof-muhitni ifloslantiruvchi kuchli manba hisoblanadi. 35 million tonna zararli chiqindilarning 89 foizi avtomobil transporti va yo'l qurilish korxonalari chiqindilari hisoblanadi. Suv havzalarining ifloslanishida transportning roli katta. Bundan tashqari, transport shaharlardagi shovqinning asosiy manbalaridan biri bo'lib, atrof-muhitning termal ifloslanishiga sezilarli hissa qo'shadi. Insoniyat sivilizatsiyasini avtomobillarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rivojlangan mamalatlarda u asosiy vosita, balki kundalik hayotning bir qismiga aylandi. Insonning harakat erkinligiga bo'lgan tabiiy

istagi, ishlab chiqarish faoliyati va xizmat ko'rsatish sohasidagi funksiyalarning murakkablashishi va nihoyat, katta shaharlarda, shahar aglomeratsiyalarida hayotning o'zi-bularning barchasi shaxsiy foydalanish uchun avtomobillar soni ko'payishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda global ekologik muammolar insoniyat hayotini jiddiy taxdid ostiga qo'yimoqda. Iqlim o'zgarishi, havo va suv ifloslanishi, biologik xilmaxillikning yo'qolishi kabi global muammolar faqat bitta mamlakatda emas, butun dunyoda keng tus oldi. Xalqaro hamkorlik va ekologik bitimlar inqirozning oldini olishda katta rol o'ynaydi. Ammo, bu masalalar yetarlicha e'tibor va amaliy harakatga ega emas. Ekologiya va atrof-muhit muhofaza qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida ko'rib chiqish lozim.

Global isish bilan bog'liq haroratning ko'tarilishi sayyoramiz uchun katta xavf tug'dirmoqda. Har yili o'rtacha global harorat ko'rsatkichlari oshib bormoqda va o'rmon yog'inlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Ushbu o'zgarishlar insoniyatga bevosita zarar yetkazib, tabiat bilan bog'liq muvozanatni izdan chiqarmoqda.

Iqlim o'zgarishining asosiy sabablaridan biri bu issiqxona gazlarining ortishi hisoblanadi. Ushbu gazlar: karbondioksid, metan, nitroksidlar atmosferaga kirib quyosh nurlarini ushlab turadi va bu haroratning ko'tarilishiga sabab bo'ladi. O'rtacha global harorat oxir o'n yilliklarda ko'tarilib bormoqda. Misol uchun, yigirmanchi asrning boshidan buyon haroratning bir darajada ko'tarilishi kuztilmoqda. Bu iqlim o'zgarishi va issiqxona gazlarining ko'payishi natijasida sodir bo'lmoqda. Jahon meteorologik tashkiloti (WMO) va boshqa ilmiy tatqiqotlar har yili global haroratning qanday o'zgarishini nazorat qiladi. Harorat ko'tarilishi, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va boshqa ekstremal ob-havo hodisalarini ko'payishiga olib keladi. Bu o'z navbatida, ekosistemalarga, qishloq xo'jaligiga va insoniyatga salbiy ta'sir qiladi. Global isishning oldini olish va unga qarshi kurashish uchun, har birimiz mas'uliyatni o'z zimmasimizga olishimiz kerak. Qishloq xo'jaligida, energiya iste'molida va kundalik hayotimizda barqaror yondashuvlarni amalga oshirish orqali iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga hissa qo'shishimiz mumkin.

Xurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning „O'zbekiston Respublikasining iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha milliy strategiyasi“ (2022-yil) ushbu strategiya iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ekologiya va atrof-muhit muhofaza bo'yicha farmonlari va

qarorlari O'zbekistonning ekologik muammolarini hal qilish, tabiiy resuslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga katta hissa qo'shmoqda, bular xalqaro miqyosda ham katta ahamiyatga ega. Xavoning ifloslanishi inson salomatligiga katta ta'sir qiladi, o'pkaga yurak-qon tomir tizimiga zarar yetkazadi. ayniqsa, kichik zarrachalar (pm2.5 va pm10) astma, bronxit va xatto o'limga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda astma kasalligi keng tarqaldi bunga sabab korxonalardan chiqayotgan partikulyar moddalar va allergenlar bo'lib kelmoqda. Shaharlar va joylarda o'simliklar, darxtlarni ko'paytirish va ekish kerak. Chunki ular toza kislorod ishlab chiqaradi.

.Xavoni tozalash bo'yicha chora tadbirlardan biri bu yashil texnologiyalardan foydalanish. Shamol va quyosh kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, transport vositalarida elektr va gibrid texnologiyalardan xavo ifloslanishini kamaytirishga yordam beradi.

Orol dengizini atrof-muhitga zarari juda keng ko'lamli va jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Orol dengizining darajasining keskin pasayishi va suv yuzasining qisqarishi ekologik inqirozga olib keldi. Bu hududda biologik xilma-xillik kamaygan, ko'plab hayvon bilan o'simlik turlari yo'qolish xavfida turibdi. Daryo, ko'l tizimlaridagi suv resurslari yo'qolishi kuzatilmoqda. Bu holat qishloq xo'jaligi va ichimlik suvi ta'minotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Suv yo'qolishi tufayli Orol dengizi atrofidagi tuproqlarda tuz to'planmoqda shu sabab hosildorlik kamayadi.

Dengizdan sug'orish ishlarida noto'g'ri foydalanish oqibatida, uning suvlari qurib, tuproqda tuzlar va boshqa minerallarni qoldirdi. Ular nafaqat tuproqni ifloslantiradi, balki shamol va bo'ronlar orqali ko'tarilib, boshqa hududlarga, shu jumladan ekin maydonlariga ham tarqaladi. Bu nafas olish tizimi va saratonning kuchayishiga olib keldi.

Orol dengizi muammosi O'zbekistonning eng dolzarb ekologik muammolaridan biri hisoblanadi. Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi O'zbekiston hukumati Orol dengizini qutqarish va uning atrof-muhitini tiklash bo'yicha bir qator qaror va farmonlarni qabul qildi. 2019-yili Orol dengizi xalqaro fondi ham tuzuldi. Bu fonning asosiy maqsadi dengizning ekologik muammolarini hal qilish va hududda yashovchi aholini qo'llab quvvatlash.

Bugungi kunda dunyoning yirik shaharlarida, jumladan, Toshkent shahrida atmosfera havosining ifloslanish darajasi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bunga tabiiy va antropogen omillar sabab bo'lmoqda.

Ijobiy ta'sir	Salbiy ta'sir
---------------	---------------

Xususan, poytaxt atmosfera havosining ifloslanishiga quyidagi omillar ta'sir etmoqda. Quyidagilar:

1. Toshkentda yashil hudud kamaygan. Jumladan, daraxtlar va butalarning kesilishiga e'lon qilingan moratoriy davrida 49 mingga yaqin daraxtlar noqonuniy kesilgan.

2. Shaxarlarda transport va piyodalar oqimining kesishmalari soni kamaytirilmagan, magistrallardagi yuklama darajasi pasaytirilmagan, transport oqimi tarkibini, tezlik rejimini tartibga solish sikli optikallashtirilmagan, yo'l harakati to'g'ri tashkil etilmagan. Natijada Toshkent shaxrida tirbandlik holatlari ko'plab kuztilmoqda. Tirbandlikda to'xtab turgan avtomobil esa harakatlanayotgan avtomobilga nisbatan atmosferaga ko'proq tashlama chiqaradi.

3. Avtotransport vositalari soni ortib bormoqda.

4. Iqtisodiyot tarmoqlari va aholining energiya resuslariga bo'lgan talabini ortishi natijasida uglevodlardan, jumladan, ko'mir yoqilg'isidan foydalanish hajmi ortmoqda.

5. Toshkent havosi ifloslanishiga shamol yo'nalishi va tezligi,, havo harorati, quyosh radiatsiyasi, atmosfera yog'inlarining miqdori va davomiyligi, harorat inversiyalari sabab bo'ladi.

Atrof-muhit ekologiyasi-bu tabiiy resurslar va organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan ilmiy soha. Bu muhitning xilma-xillikka ta'siri ko'plab faktorlar orqali amalga oshadi. Ushbu ta'sir ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin.

XULOSA: Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish dunyo miqyosida dolzarb muomolardan biri bo'lin qolmoqda. Global isish biologik xilma-xillikning kamayishi, havoning ifloslanishi va suv resurslarining kamayishi kabilar bu muamolarni yanada chuqurlashtiradi. Inson faoliyati tufayli tabiiy resurslar haddan tashqari tez sarflanmoqda, bu esa atrof-muhitga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish strategiyalari va innovatsion yashil texnologiyalardan foydalanish zarur. Faqatgina ekologik ongini oshirish va resurslarni oqilona boshqarish orqali biz kelajak avlod uchun sog'lom muhit yaratishimiz mumkin.

Biologik xilma xillik ekologik sistemalarni barqaror qiladi. Turli turlar bir birini qo'llab – quvvatlashi va ularning o'zaro bog'liqligi eko sistemalarning chidamliligini oshiradi.

Turli hil turlar, masalan, o'simliklar, mikroblar va hayvonlar biokimyoviy jarayonlarni azot aylanishi uglerod aylanishini boshqaradi. Bu jarayonlar tuproq sifatini yaxshilaydi va ekologiyani yaxshilaydi.

Iqlim oz'garishi ko'plab turlar yashashi uchun yashash sharoitlarini o'zgartiradi, bu esa biologic xilma xillikni kamaytirishi mumkin. Ba'zi turlar o'z joyida yashay olmaydi va migratsiya qilishga majbur bo'lishadi, bu esa eko sistemalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pestitsidlar, o'g'itlar va sanoat chiqindilari atrof muhitni ifloslantiradi. Bu ifloslanish organizmlar, ularning oziq- ovqat zanjirlari va yashash joylariga zarar yetkazadi, ko'plab turlar qirilib ketadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ekologiya va atrof muhit muhofazasini yanada takomillashtirish to'g'risida” Prezident farmoni (2017-yil 21 aprel).
2. “Orol bo'yi hududida ekologik va ijtimoiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash” farmoni (2018-yildagi 29 yanvar).
3. David Wallace-Wells muallifning ”The Uninhabitable Earth: Life After.
4. “Orol muammosi: Ekologiya va iqtisodiyot” muallif Anvar N.Kadirov.
5. “The Aral Sea: A Mirror of Climate Change” muallif David A.W.H. Shent.
6. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofazaa qilish vo'zgarish vazirligi “Toshkent shahri atmosfera havosi ifloslanishidan ma'lumot”.

Ilmiy Raxbar: Ibodulla Tursunmetov Rozibaevich

Muallif: TTA 2-son Davolash fakulteti 1-kurs talabasi Qosimova Layloxon Zafarjon qiz